

SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARINING

LEKSIK XUSUSIYATLARI

JDPI talabasi Qamariddinova Dinora

Ma'lumki, badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu xususiyatni she'riy matnda anglash oson kechadi. Chunki badiiy asarda o'ziga xos jozibadorlik bilan aytiladigan ohang bo'ladi. Bu ohangga tovushlarni ketma-ket qo'llash, tovushlarni cho'zish yoki tovushlarni uslubiy qo'llash orqali erishiladi. Asosan, she'riyatda alliteratsiya (undoshlar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalanadi. Nasrda esa unilarni cho'zish, segment va ustsegment birliklardan o'rinli foydalanish, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni va tovushlarni takrorlash, tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Nasrda shuningdek, asosiy ekspressivlikni ta'minlaydigan hodisalardan asosiysi bu intonatsiyadir.

Sharof Boshbekov dramalarida unli tovushlarni cho'zish orqali personaj nutqida qator qahramonga xos bo'lgan ruhiyatni, ichki dunyonini, his-hayajonlarni ochib beradi.

Masalan: Pirmat. Rahmatilla bilan bi-i-ir tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim.¹ Bunda unli tovushni cho'zish orqali o'sha tanishtirmoqchi bo'lgan insonni o'ziga yaqin olishi, unga hurmati baland ekanini kabi ma'nolar anglashiladi.

Yozuvchi o'z dramalarida so'zlarni, tovushlarni va o'zlashma so'zlarni buzib, noto'g'ri talaffuz qilish holatlari uchraydi.

Masalan: Qumri. "Ras", "duva", "vzali" deyishdi.

Qo'chqor. Nima-li?

Qumri. "Vzali".

Qo'chqor. "Vzyali" o'qimagan!²

Qo'chqor (og'rinib). O'qigan, olim odamsan, ko'tarda past bo'lsa! "Pri-gres-mri--gres qilasan bu yerga kirib olib!

Bu misollarda ishlatilayotgan "vzali", pri-gres-mri-gres so'zlari asli "vzyali", "progress" o'zlashma so'zlarning personaj tilidagi noto'g'ri talaffuz qilingan shakli hisoblanadi. Bu so'zlarni personaj nutqida noto'g'ri qo'llash orqali yozuvchi asar yaratilgan vaqtni, muhitni ijtimoiy ahvolni, xalqning bilim saviyasi qanchalik ekanini, asar qahramonining individual xarakterini ochib beradi.

Biz asar o'qish davomida hushyor bo'lishimiz zarur noto'g'ri talaffuz qilingan so'zlarni shevaga oid so'z deb qabul qilmasligimiz zarur. Yozuvchining bunday so'zlardan foydalanishdan maqsadi badiiy asardagi muhitni aniq, konkret, voqealar izchilligini ta'minlashdan iborat.

Yozuvchi o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadi. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirishi bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir.³

Masalan: Qo'chqor. Uyda bo'lsa qaychi berib tursin, devdim. Ishkom jaa taraqvaylab ketibdi.⁴

Yozuvchi dramalardagi voqealarni yoritishda dialektlardan o'rinli foydalangan. Dialektlar asarda o'z qimmatiga ega. Dialektlar dramalarning badiiy qimmatini oshirgan.

Sheva va dialekt tilimizning bir bo'lagi aslida. Bu mening izohimsiz ham o'tmish adabiyotida o'z ifodasini topib bo'lgan. Turkolog olim Murod Ajinning "Dashti qipchoq yovshani" asarini o'qisangiz tilimizning, millatimizning tarixi biz o'ylagandan va biz bilgandan ham qadimiyroq ekaniga amin bo'lasiz.⁵

Darhaqiqat, tilimizni dialekt va shevalardan holi tasavvur etib bo'lmaydi. Ular ham tilshunosligimizda va badiiy adabiyotimizda qimmatli o'z o'rniga ega.

Sharof Boshbekov asarlarining qimmatini qaysidir ma'noda dialekt va shevalar ham ancha oshirgan aslida.

Shuningdek,yozuvchi dramalarida baynalminal so'zlarni ham qo'llaydi.Bu bilan yozuvchi o'sha davr odamlarining leksikasini qanday ekanini yoritib beradi.

Masalan: Endi gap bunday:bugundan boshlab siz obkegan xarom ovqatingizniyam yemayman,obkegan xarom kiyimingizniyam kiymayman!Vsyo⁶!..

Nonni "na-na-na"deb yuribdi-yu,zakun talashadi tag'in⁷.

O'zbek tilida chetdan kirib kelgan so'zlar bisyor.Bu so'zlar kundalik hayotda,turmush tarzida,ilm-fanda va boshqa sohalarda qo'llanilib kelinmoqda.Chetdan kirib kelgan so'zlarni vaqt o'tishi bilan tilimizning so'zlar lug'atiga o'zbekcha so'z sifatida kiritamiz.Bu hodisa tilimizning ichki imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda baynalminal so'zlar o'zbek tiliga rus va ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar hisoblanadi.Ularning miqdori qolgan baynalminal so'zlarga qaraganda ko'proq miqdorni tashkil etadi.

Sharof Boshbekovning dramalarining leksik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida adib dramalarining badiyatini ochib berishda noodatiy qatlamga oid birliklarning o'rni katta ekaniga guvoh bo'lamiz.Dramalarda dialektlar,shevaga oid so'zlar,asar tilining jozibadorligi personaj nutqining o'ziga xosligini ochib berishda katta rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sharof Boshbekov "Eshik qoqqan kim bo'ldi?"(38-bet)
- 2.Sharof Boshbekov "Temir xotin" (168-bet).
- 3.Karimov.S."Badiiy uslub va tilning tasvir vositalari". Samarqand 1994-yil.57-bet.
- 4.Sharof Boshbekov "Temir xotin"(164-bet).
- 5.<http://kh-davron.uz> Omon Matjon
- 6.Sh.Boshbekov "Falak gardishi"(31-bet) www.ziyouz.com.kutubxonasi.
- 7.Sh.Boshbekov "Eshik qoqqan kim bo'ldi?"(4-bet).